

**“TURONBANK” AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI TIZIMIDA
GAROV MULKLARINI ALMASHTIRISH VA
QISMAN GAROVDAN CHIQARISH
T A R T I B I**

Mazkur ““Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki tizimida garov mulklarini almashtirish va qisman garovdan chiqarish Tartibi” (keyingi o‘rinlarda — “Tartib” deb yuritiladi), O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”, “Garov to‘g‘risida”, “Ipoteka to‘g‘risida”, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”, “Bank siri to‘g‘risida”, “Manfaatlar to‘qnashuvi” to‘g‘risidagi Qonunlari, Adliya vazirligi tomonidan 2000-yil 5-aprelda 916-son bilan ro‘yxatga olingan “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki qoidalariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida Nizom”, 2018-yil 2-iyulda ro‘yxatdan o‘tkazilgan 3030-sonli “Bank xizmatlari iste‘molchilari bilan o‘zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo‘yiladigan minimal talablar to‘g‘risida Nizom”, “Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki (keyingi o‘rinlarda — “Bank” deb yuritiladi) Ustavi, Bankning Kredit ta‘minoti Siyosati, tegishli ichki tartib-qoidalar talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Tartib “Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki tizimida kredit ta‘minotiga qabul qilingan garov mulklarini kreditning asosiy qarzi qoldig‘iga mutanosib ravishda bosqichma-bosqich garovdan chiqarish yoki garov narsasini almashtirish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Tartibda quyidagi **asosiy tushuncha va atamalar** qo‘llanadi:

Bank — “Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki, uning tarkibiy bo‘linmalari;

Kreditlar va unga tenglashtirilgan operatsiyalar — kredit, mikroqarz, mikrokredit, mikrolizing, lizing, faktoring operatsiyalari, savdoga oid moliyalashtirishlar (akkreditiv), kafolat va kafilliklar;

garov - Bir shaxsning boshqa shaxsga mol-mulkni yoki unga bo‘lgan huquqni majburiyatlarni ta‘minlash uchun berishi;

qarzdor – kreditlash xizmati ko‘rsatilgan va bugungi kunda Bank oldida qarzdorligi mavjud bo‘lgan yuridik yoki jismoniy shaxs, shuningdek, yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan tadbirkorlik subyekti;

garovga qo‘yuvchi – ashyoning (ko‘char, ko‘chmas mol mulk) mulkdori yoki garovga qo‘yiladigan huquqning egasi bo‘lgan shaxs. Qarzdor(qarz oluvchi)ning o‘zi ham, uchinchi shaxs ham garovga qo‘yuvchi bo‘lishi mumkin;

garov mulklarini almashtirish – ajratilgan kredit ta‘minotini boshqa garovlarga almashtirish;

garov mulklarini qisman garovdan chiqarish – ajratilgan kredit ta‘minotini kredit so‘ndirilgan qismiga mutanosib ravishda garovdan chiqim qilish;

Bank Kengashi — bank faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, boshqaruvga oid qarorlar qabul qilish jarayonida nazorat va tekshiruv vazifasini bajaradi hamda umuman bankning faoliyati va moliyaviy barqarorligi uchun javobgar;

Bank Boshqaruvi — bankni boshqarishning ijro etuvchi organi bo‘lib, u bankning kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan faoliyat strategiyasi va uni boshqarish tizimiga muvofiq bankning faoliyatiga operativ boshqaruvni amalga oshiradi hamda bankning faoliyati uchun javobgarlikni to‘liq zimmasiga oladi;

BXM — Bank xizmatlari markazlari;

Rahbariyat - Bank Kuzatuv Kengashi raisi va Kengash a'zolari, Bank Boshqaruvi raisi va Boshqaruv a'zolari, BXM/BXO rahbarlari;

Kredit qo'mitasi – Bosh bankda tashkil etilgan, ushbu siyosat bilan belgilab berilgan vakolat doirasida tegishli qarorlar qabul qilish, “Turonbank” ATB Kredit qo'mitalarining Nizomi”da belgilangan vazifalarni bajaruvchi **kollegial organ**;

Bank xizmatlari markazlarining Kredit komissiyalari – Bank xizmatlari markazlarida tashkil etilgan, Bankning amaldagi “Kredit siyosat”i va “Turonbank” ATB Bank xizmatlari markazlarining Kredit komissiyalari Nizomi” bilan belgilab berilgan vakolat doirasida tegishli qarorlar qabul qilish va ularda belgilangan vazifalarni bajaruvchi **kollegial organ**;

Garov mulkini baholash komissiyasi – bankning amaldagi Kredit ta'minoti siyosatida belgilangan tartibda BXMda tashkil etilgan, garovga taqdim etilayotgan mulklarning holati va huquqiy hujjatlarini o'rgangan holda BXM kredit komissiyasiga mulklarning garov qiymati loyihasini taqdim etuvchi, tegishli kollegial organing yakuniy qaroridan so'ng, Kelishuv baholash dalolatnomasini imzolovchi kollegial organ.

mas'ul xodim - lavozim majburiyatlari doirasida muayyan ish, jarayon yoki loyiha uchun javobgarlik yuklatilgan shaxs;

2-bob. Bank tizimida garov mulklarini almashtirish va kreditni so'ndirilgan qismi hisobidan garov mulkini qisman garovdan chiqarish jarayonlarini tashkil etish

3. Ta'minot sifatida garovga qo'yilgan mulkni almashtirish yoki kreditni so'ndirilgan qismiga mutanosib ravishda mulk(lar)ni qisman garovdan chiqarish uchun Qarzdor bankning kredit ajratgan Bank xizmatlari markaziga mazkur Tartibning **13-bandida** qayd etilgan hujjatlarni ilova qilgan holda ariza bilan murojaat qiladi. Murojaat BXMda belgilangan kelgan xatlar kitobida ro'yxatga olinadi. BXM rahbari arizani qarzdorning segmenti bo'yicha tegishli (Korporativ biznes, Kichik va o'rta biznes, Chakan biznes) bo'linma rahbariga, bo'linma rahbari o'zi belgilagan holda mas'ul xodimga o'rnatilgan tartibda ko'rib chiqish va xulosa tayyorlash uchun yo'naltiradi. Qarzdor Bosh bankka ariza yuborgan taqdirda, Qarzdorning arizasi ushbu tartibda belgilangan tartibda ko'rib chiqish uchun kreditga xizmat ko'rsatayotgan BXMga yuboriladi.

4. BXM Kredit komissiyasi tomonidan ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda, BXM Kredit komissiyasining qarori BXM rahbari tomonidan imzolangan ustxat asosida Bosh bankka yuborildi. Bosh bankda Monitoring va nazorat departamenti Garov boshqarmasi tomonidan barcha hujjatlar o'rganiladi va tegishli xulosa tayyorlangan holda, agar kredit qoldig'i **500,0** (besh yuz) mln.so'm yoki uning ekvivalentidan ko'p bo'lsa masala Katta kredit qo'mita muhokamasiga kiritiladi, kredit qoldig'i **500,0** mln.so'm yoki uning ekvivalentidan kam bo'lsa bank Boshqaruv Raisining tegishli o'rinbosari tomonidan imzolangan xat asosida ruxsat beriladi.

5. Garov ta'minoti almashtirilishi yoki kreditning so'ndirilgan qismi hisobidan garov mulki qisman garovdan chiqarilishi so'ralayotgan kredit (agar kredit qoldig'i **500,0** (besh yuz) mln.so'm yoki uning ekvivalentidan ko'p bo'lsa) bank Boshqaruv yoki bank Kuzatuv Kengashi qarori asosida ajratilgan bo'lsa, masala yakuniy qaror qabul qilish uchun bosqichma bosqich ushbu kollegial organlar muhokamasiga kiritiladi.

6. Tegishli kollegial organning ijobiy qarorini olgandan so'ng, BXMdagi qarzdorning segmenti bo'yicha tegishli (Korporativ biznes, Kichik va o'rta biznes, Chakan biznes) bo'linma mas'ul xodimi garov mulklarini almashtirish holatida Kredit shartnomasiga kiritiladigan o'zgartirishlar bo'yicha Qo'shimcha shartnomani va Kelishuv baholash dalolatnomasini tayyorlaydi, Qo'shimcha shartnoma BXM yuristi, rahbari va Qarzdorning vakolatli shaxsi tomonidan, shuningdek Kelishuv baholash dalolatnomasi BXM baholash komissiyasi a'zolari tomonidan imzolanishini ta'minlaydi.

7. Garov mulklarini almashtirish holatida garov shartnomasiga kiritiladigan o'zgartirish yuzasidan tuziladigan Qo'shimcha shartnoma notarial idora tomonidan rasmiylashtiriladi va Qarzdor va BXMning vakolatli xodimi tomonidan imzolanadi.

Mijoz tomonidan Garov shartnomaga kiritilgan o'zgartirishlar bo'yicha Qo'shimcha shartnoma BXMdagi qarzdorning segmenti bo'yicha tegishli (Korporativ biznes, Kichik va o'rta biznes, Chakan biznes) bo'linma mas'ul xodimiga taqdim etilgandan so'ng, mas'ul xodim barcha hujjatlarni skaner nusxalarini Colvir dasturining dosyesiga yuklaydi, Garov shartnomaga Qo'shimcha shartnomaning aslini kassa omboriga kirim qilish uchun balansdan tashqari memorial order to'ldirgan holda kassaga topshiradi.

8. Amaldagi qonunchilikka asosan 2019-yil 1-yanvargacha tuzilgan garov shartnomalariga asosan ta'qiq qo'yilgan mulklarning ta'qiqi Notarial idora tomonidan, 2019-yil 1-yanvardan keyin tuzilgan garov shartnomalariga asosan ta'qiq qo'yilgan mulklarning ta'qiqi Monitoring va nazorat departamenti "Garov boshqarmasi"ning vakolatli xodimi tomonidan bekor qilinadi.

3-bob. Garov mulklarini almashtirish va kreditni so'ndirilgan qismi hisobidan garov mulkini qisman garovdan chiqarishga qo'yiladigan talablar

9. Garov mulklarini almashtirishda kredit ta'minoti tarkibida "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJning kafilligi mavjud bo'lganda, avval "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" Ajning roziligi olinishi lozim.

10. Kreditni so'ndirilgan qismi hisobidan garov mulkini qisman garovdan chiqarish masalasi garovda qolayotgan mulkning garov qiymati kredit qoldig'ini **125%ini** (bankka aloqador shaxslar uchun **130% ini**, xorijiy valyutadagi kreditlar uchun **130% ini**, uchinchi shaxsga tegishli mulk bo'lganda **130% ini**) tashkil qilganda ko'rib chiqiladi va bunda uchinchi shaxslarga tegishli garov mulklari qolgan holda qarzdorning o'ziga tegishli mulkni garovdan chiqarishga yo'l qo'yilmaydi, uchinchi shaxs bo'lgan garov mulklari egalarining roziligi taqdim etilgan holatlar bundan mustasno.

11. Qarzdor quyidagi talablarga javob bergan holatlardagina garov mulklarini almashtirish yoki qisman garovdan chiqarishga ruxsat etiladi:

- a) moliyaviy barqaror faoliyat ko'rsatishi;
- b) bank hisobvarag'i orqali muntazam pul aylanmasini amalga oshirishi;
- c) oxirgi moliyaviy yil yakunlari bo'yicha hamda joriy yil tegishli choragi yakuni bo'yicha operativ balans, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlarga ko'ra kreditga layoqatlilik kamida 2-sinf bo'lishi;
- d) Garov mulklarini almashtirish yoki qisman garovdan chiqarish jarayonida mijozning bank oldida muddati o'tgan qarzdorliklari bo'lmasligi;

e) “Muddatida to‘lanmagan hisob-kitob hujjatlari” hisobvarag‘ida (keyingi o‘rinlarda “2-sonli kartoteka”) qarzadorligi mavjud bo‘lmasligi;

f) muddati uzaytirilgan foiz qarzadorliklari mavjud bo‘lmasligi.

Shuningdek, almashtirish uchun taqdim etilayotgan va garovda qolayotgan mulk likvidli, moddiy va ma‘naviy eskirmagan bo‘lishi, bozorda erkin sotilishi, ya‘ni unga xaridor topish mushkul bo‘lmasligi zarur.

12. Mazkur Tartibning **11-bandida** ko‘rsatilgan shartlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, majlis bayonlari va topshiriqlari asosida ishlarni bajarayotgan (xizmatlarni ko‘rsatayotgan) xo‘jalik yurituvchi subyektlarga ajratilgan kreditlarda, **kreditni so‘ndirilgan qismi hisobidan qisman garovdan chiqarishda** uchinchi shaxslarning mulki garovga olingan holda ajratilgan kreditlar, strategik mijozlar va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan loyihalarni amalga oshirayotgan, shuningdek yuqoridagi talablar to‘liq bajarilmaganlik sabablari real asoslantirilgan qarzadorlar bo‘yicha alohida hollarda Bank Boshqaruvi qarori asosida **istisno qilinishi mumkin**.

13. Garov mulklarini almashtirishda va qisman garovdan chiqarishda garovdan chiqarilayotgan mulklarning o‘rniga taqdim qilinayotgan mol-mulklarning bozor qiymatini belgilash to‘g‘risidagi mustaqil baholovchi tashkilotining hisoboti (zarur hollarda baholash hisobotini to‘g‘ri rasmiylashtirilganligi yuzasidan ekspertiza xulosasi) taqdim etilishi zarur.

4-bob. Garov mulklarini almashtirish va qisman garovdan chiqarish masalasini ko‘rib chiqish tartibi

14. Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan Qarzdor garovdagi mulklarni almashtirish yoki qisman garovdan chiqarish yuzasidan murojaat qilganda, murojaatiga oxirgi moliyaviy yil yakunlari bo‘yicha hamda joriy yil tegishli choragi yakuni bo‘yicha operativ balans, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot, muddati o‘tgan debitorlik va kreditorlik qarzadorliklari to‘g‘risidagi hisoboti (muddati o‘tgan qarzadorlik mavjud bo‘lganda), almashtirish uchun taqdim etilayotgan mulk yuridik shaxsga tegishli bo‘lsa ta‘sischilarning roziligi, mulkning hujjatlari va mustaqil baholash tashkilotining baholash hisobotini ilova qilishi shart.

15. Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan Qarzdorning murojaati BXMning “Kelgan xatlar” kitobida ro‘yxatga olingandan so‘ng, BXM kredit bo‘limi mas‘ul xodimi tomonidan **3** (uch) bank ish kuni ichida mijozning joriy moliyaviy holati (oxirgi moliyaviy yil yakuni va joriy yil tegishli choragi yakunlari bo‘yicha buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalari hamda muddati o‘tgan debitorlik va kreditorlik qarzadorliklari to‘g‘risidagi hisoboti), biznes reja ko‘rsatkichlarining bajarilishi, har qanday qarzadorliklar, shu jumladan boshqa bankdagi kredit va boshqa qarzlari, kartoteka qarzadorliklari tahlil qilingan holda xulosa yoziladi. Xulosa uni tayyorlagan kredit bo‘limi mas‘ul xodimi va kredit bo‘limi boshlig‘i tomonidan imzolanadi hamda BXM rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

16. Garov obyektini o‘rganish bo‘yicha komissiya tomonidan almashtirishga taklif etilayotgan yoki garovda qolayotgan mulklarning holatini o‘rganish natijalari bo‘yicha dalolatnoma tuziladi. Dalolatnomaga ko‘zdan kechirish jarayonida olingan fotosuratlar ilova qilinishi zarur. Dalolatnoma garov obyektini ko‘zdan kechirish jarayonida ishtirok etgan barcha xodimlar tomonidan imzolanadi.

17. Garov obyektini o'rganish komissiyasi tomonidan mol-mulkning holati o'rganilishida bankning amaldagi "Kredit ta'minoti Siyosati" talablariga e'tibor qaratilishi zarur.

18. Garov obyektini o'rganish komissiyasi tomonidan mulkni baholagan mustaqil baholash tashkilotining hisoboti, baholash tashkilotining vakolati o'rganiladi va u asosida shunga o'xshash obyektlar taklif narxidan, Kredit ta'minoti siyosati talablaridan kelib chiqib, almashtirishga taklif etilayotgan mulkning garovga olish bahosi belgilanadi va kredit bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlashga yetarliligi aniqlanadi.

Mulkni o'rganish natijalari bo'yicha dalolatnoma va u asosida BXM rahbari, qarz oluvchi va garovga qo'yuvchi tomonidan imzolangan garov mulkini baholash bo'yicha kelishuv dalolatnomasi yig'majildga tikilishi lozim.

19. Garov mulklarini almashtirish va qisman garovdan chiqarish masalasi bo'yicha hujjatlarning amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq rasmiylashtirilganligi yuzasidan BXM yuristi xulosa beradi.

20. Garov mulklarini almashtirish va qisman garovdan chiqarish masalasi BXM Kredit komissiyasi yig'ilishida muhokama qilinadi va uning natijasi bo'yicha Kredit komissiyasi majlis bayoni rasmiylashtirilib, u komissiyaning barcha a'zolari tomonidan imzolanadi. Bunda BXM Kredit komissiyasi qaror qabul qilish muddati murojaat tushgan sanadan boshlab 5 (besh) bank ish kunidan oshib ketmasligi lozim.

21. Qarzdorning garov mulkini almashtirish yoki qisman garovdan chiqarish masalasi bo'yicha murojaati rad etilgan taqdirda BXM tomonidan rad etish sabablari ko'rsatilgan holda yozma ravishda qarzdorga javob berilishi zarur.

22. Garov mulkini almashtirish masalasi bo'yicha BXM Kredit komissiyasi tomonidan ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda, ushbu masala bo'yicha yakuniy qaror qabul qilish uchun **quyidagi hujjatlar** to'plamidan iborat yig'majild Bank Katta Kredit qo'mitasiga taqdim etiladi:

- a) garov mulkini almashtirish to'g'risida qarzdorning arizasi;
- b) qarzdor yuridik shaxs bo'lsa, oxirgi moliyaviy yil yakunlari bo'yicha hamda joriy yil tegishli choragi yakuni bo'yicha operativ balans, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlar;
- c) BXM "Korporativ biznes, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlash bo'limi", "Kichik va o'rta biznes bo'limi" yoki "Chakana biznes bo'limi xodimining ijobiy xulosasi;
- d) BXM Kredit komissiyasining barcha a'zolari tomonidan imzolangan ijobiy qarori;
- e) garov mulkning bozor qiymatini belgilash to'g'risidagi mustaqil baholovchi tashkilotining hisoboti (zarur hollarda baholash hisoboti bo'yicha ekspertiza xulosasi);
- f) "Garov mulkini baholash komissiyasi" tomonidan garov mulkning o'rganilganligi to'g'risidagi dalolatnoma;
- g) garov mulki qiymatini kelishuv baholash dalolatnomasi loyihasi;
- h) BXMda faoliyat yuritadigan yurist xulosasi;
- i) BXMlar bo'yicha Monitoring va garov ekspertizasi bo'limi xulosasi;
- j) garovga taqdim etilayotgan turar joyda hech kim ro'yxatda turmasligini tasdiqlovchi hujjat;
- k) kredit ta'minoti sifatida turar joyni garovga berish va uni begonalashtirish mumkinligi bo'yicha uyda istiqomat qiluvchilarning notarial tasdiqlangan rozilik xatlari;

l) mulk egasi shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari bilan (jismoniy shaxslar uchun);

m) garovga qo'yilayotgan mulk davlat korxonasiga tegishli bo'lgan taqdirda qo'shimcha ravishda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida ko'zda tutilgan holatlarda ko'chmas mulkni garovga berish uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi ruxsatnomasi;

n) garov mulkining turidan kelib chiqib zarur hollarda qo'shimcha hujjatlar talab qilinishi mumkin.

23. Garov mulkini kreditni so'ndirilgan qismi hisobidan qisman garovdan chiqarish bo'yicha BXM Kredit komissiyasi tomonidan ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda, ushbu masala bo'yicha yakuniy qaror qabul qilish uchun quyidagi hujjatlar to'plamidan iborat yig'majild Bank Katta Kredit qo'mitasiga taqdim etiladi.

a) garov mulkini qisman garovdan chiqarish to'g'risida qarzdorning arizasi;

b) qarzdor yuridik shaxs bo'ls aoxirgi moliyaviy yil yakunlari bo'yicha hamda joriy yil tegishli choragi yakuni bo'yicha operativ balans, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlar;

c) BXM "Korporativ biznes, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlash bo'limi", "Kichik va o'rta biznes bo'limi" yoki "Chakana biznes bo'limi" xodimining ijobiy xulosasi;

d) BXM Kredit komissiyasining barcha a'zolari tomonidan imzolangan ijobiy qarori;

e) Garov mulkini baholash komissiyasi tomonidan garovda qolayotgan mulklarni ko'zdan kechirish dalolatnomasi;

f) BXMda faoliyat yuritadigan yurist xulosasi;

g) BXMlar bo'yicha Monitoring va garov ekspertizasi bo'limi xulosasi.

24. Garov mulki sifatida texnologik liniyalar taqdim etilayotganda garovga taqdim etilayotgan (yoki almashtirilayotgan) texnologiyalarning ishlashi bevosita garovda bo'lmagan boshqa liniyaga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lmasligi shart.

25. Garov mulki sifatida muomaladagi tovarlar taqdim etiladigan bo'lsa, "Kredit ta'minoti siyosati" talablariga muvofiq garovga qo'yilayotgan muomaladagi tovarlarning kelib chiqishiga va yaroqlilik muddatlariga e'tibor berilishi hamda ularning sifat sertifikatlari bojxona deklaratsiyasi hamda tovarlarning mavjudligini tasdiqlovchi boshqa har qanday hujjatlar talab qilinishi lozim.

26. Garov mulkini almashtirish yoki qisman garovdan chiqarish masalasi bo'yicha BXM rahbarining xati asosida barcha hujjatlar Bank Katta Kredit qo'mitasiga taqdim etilganidan so'ng bankning Monitoring va nazorat departamenti mas'ul xodimlari tomonidan 3 (uch) bank ish kuni ichida BXM tomonidan taqdim qilingan hujjatlar asosida xulosa yoziladi. Ushbu xulosa uni tayyorlagan mas'ul xodim, Monitoring va nazorat departamenti direktori tomonidan imzolanadi.

27. BXM tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni o'rganish jarayonida kamchiliklar aniqlangan taqdirda Monitoring va nazorat departamenti tomonidan mazkur masala Bank Katta Kredit qo'mitasiga muhokamasiga kiritilmasdan, xato va kamchiliklar ko'rsatilgan holda BXMga qaytarilishi mumkin.

28. Garov mulkini almashtirish yoki qisman garovdan chiqarish masalasi bo'yicha Monitoring va nazorat departamentining xulosasi hamda BXM tomonidan taqdim etilgan yig'majildlar to'plami yakuniy qaror qabul qilish uchun Bank Katta Kredit qo'mitasiga taqdim etiladi.

Bunda, BXM Kredit komissiyasining qaroriga muvofiq kredit qoldig'i **500** (besh yuz) mln.soʻmdan oshmaydigan, kredit taʼminoti siyosatida belgilangan mezonlarga javob beradigan kreditlar boʻyicha Monitoring va nazorat departamentining xulosasi asosida Boshqaruv Raisining birinchi oʻrinbosari yoki Boshqaruv Raisi tegishli oʻrinbosari tomonidan imzolangan ruxsat xati asosida garov mulklarini almashtirish yoki qisman garovdan ozod etishga ruxsat berilishi mumkin.

29. Bank Katta Kredit qoʻmitasiga BXM tomonidan taqdim qilingan hujjatlarni va Monitoring va nazorat departamentining xulosasini oʻrganib chiqqan holda soʻnggi qarorni qabul qiladi. Bunda yakuniy qaror qabul qilish muddati mijoz barcha hujjatlarni taqdim etgan holda murojaat qilgan sanadan boshlab **10** (oʻn) bank ish kunidan, yakuniy qaror Bank Boshqaruvi tomonidan qabul qilinadigan hollarda **15** (oʻn besh) bank ish kunidan oshib ketmasligi, alohida oʻrganish talab qilinadigan yoki yakuniy qaror Bank Kengashi tomonidan qabul qilinadigan hollarda, bu haqda mijozga yozma xabar bergan holda, **30** bank ish kuniga uzaytirilishi mumkin.

30. Tegishli kollegial organ tomonidan yakuniy qaror qabul qilingandan soʻng **1** (bir) bank ish kuni ichida BXMga maʼlumot beriladi.

31. Tegishli kollegial organing yakuniy qarori qabul qilingandan soʻng garov mulki qiymatini kelishuv baholash dalolatnomasi va boshqa hujjatlar rasmiylashtiriladi.

32. Bank Boshqaruvi yoki Bank Kengashi qarori asosida ajratilgan kreditlar boʻyicha garov mulkini almashtirish yoki qisman garovdan chiqarish masalasi yuzasidan Bank Katta Kredit qoʻmitasining tegishli qarori mos ravishda Bank Boshqaruvi yoki Bank Kengashi tomonidan tasdiqlangandan soʻng kuchga kiradi.

33. Almashtirishga taqdim etilayotgan mulk garovga olinmasdan avval turli xil ofatlardan saqlash va oldini olish yuzasidan kreditning toʻliq muddatiga sugʻurta qilinishi, notarial garov shartnomasi rasmiylashtirilgandan soʻng tegishli idoralardan mazkur mulklarning uchinchi shaxsga sotilishi yoki har qanday tarzda begonalashtirilishi yuzasidan taqiqnoma rasmiylashtirilishi lozim.

5-bob. Javobgarlik

34. Bank tizimida garov mulklarini almashtirish va qisman garovdan chiqarish jarayonlarida ushbu Tartib talablarining buzilishida aybdor boʻlgan rahbar va masʼul xodimlar Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida, Bank ichki qoidalarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladilar.

35. Bank tizimida garov mulklarini almashtirish va qisman garovdan chiqarish boʻyicha normativ-huquqiy hujjatlarga rioya etilishini taʼminlash va soha nazorati uchun Bank Monitoring va nazorat departamenti, BXM va BXOlarning rahbar va masʼul xodimlari masʼul hisoblanadi.

36. Bank tizimida ushbu Tartib talablari, tartib-qoidalariga muvofiq korrupsiyaga qarshi “komplaens-nazorat” tizimi, manfaatlar toʻqnashuvini oldini olish tartib qoidalarini buzgan rahbar va masʼul xodimlar lavozimi, xizmat muddati va boshqa omillardan qatʼi nazar, Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bankning ichki qoidalarida koʻzda tutilgan asoslar boʻyicha javobgarlikka tortiladilar.

6-bob. Yakuniy qoidalar

37. Mazkur ““Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki tizimida garov mulklarini almashtirish va qisman garovdan chiqarish Tartibi” tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

38. Ushbu Tartibga kiritiladigan barcha o‘zgartirish va qo‘shimchalar Bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlanadi.

39. Mazkur Tartibga Bankning tegishli tarkibiy bo‘linmalari, BXM va BXOlarning rahbar va mas’ul xodimlarining rioya etishlari majburiy hisoblanadi.

40. Ushbu Tartib talablari, tartib-qoidalariga rioya qilinishi bo‘yicha monitoring va nazorat belgilangan tartibda Bank Boshqaruvi, Monitoring va nazorat departamenti, barcha BXM va BXO rahbarlari tomonidan amalga oshiriladi.

41. Mazkur Tartibda ko‘zda tutilmagan boshqa holatlar amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, Bankning tegishli ichki qoidalar bilan tartibga solinadi.